O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025

TABIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

KIMYO

С.Ш.Кабилов, М.Б.Холиков
Технологические методы переработки фруктов и овощей 226
B.K.Boboyev, N.N.Yusupova
Yangi O'zbekistonda chorvachilikni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish istiqbollari 230
S.S.Toyirov
O'zbekiston qishloq xo'jaligining texnika bilan ta'minlash va undagi dastlabki muammolar 233
M.A.Mirzayeva, N.I.Teshaboyev, M.Z.Mamadaliyev
Pomidor o'simligining biologik xususiyatlarini o'rganish 237
I.I.Musayev, A.T.Turdaliyev, A.A.Ahmadjonov, Y.H.Muhammadov
Och tusli bo'z tuproqlar unumdorligi va ularda uzum hosildorligi 241
S.X.Zakirova, Z.M.Rajavaliyeva
Farg'ona viloyatining eskidan sug'orilgan tipik bo'z tuproqlari va malboro navli malina (*Rubus ideaeus*) yetishtirish' 246

GEOGRAFIYA

X.S.Mirzaaxmedov
Farg'ona iqtisodiy rayoni investitsion muhiti (iqtisodiy geografik tahlil) 253
D.A.Toymbayeva
Shamollarni o'rganish va tadqiq etishda geoaxborot tizimlari (Sirdaryo viloyati hududida misolida) 262
Sh.X.Turdiboyeva
Qadamjoylar va ziyoratgohlarda turizm va rekreatsiyani rivojlantirish istiqbollari (Farg'ona vodiysi misolida) 267
I.I.Muxitdinov
Kriminogen vaziyatni shakllantiruvchi omillar va ularning tasnifi (Farg'ona viloyati misolida) 273
R.T.Pirnazarov
O'rta Osiyo to'g'onli ko'llarining suv toshqini xavfini genetik-geomorfologik baholash asoslari 278
K.Khamraev
Territorial organization and development prospects of the food industry in Samarkand region 285

EKOLOGIYA

Н.Р.Закирова, М.К.Юлдашев
Инновационная "Проблемная" технология в образовании: применение на уроках экологии 290
N.R.Alimkulov, Sh.G.Qarshiboyeva, G'.D.Jangirov
Iqlim o'zgarishi sharoitida Mirzacho'l litogen va gidroiqlimiy muhitining agrolandshaftlar shakllanishidagi o'rni 294

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi 302
M.U.Mahmudov
Rhynococris iracundus (Heteroptera: Reduviidae) turining Farg'ona vodiysida tarqalishi va biologik kurashdagi o'rni 306

ILMIY AXBOROT

M.X.Akbarova, D.Sultonov, Z.A.Yusupova, N.S.Salimova, F.F.Mahmudov
Hayotini ilm-fan va ta'limga bag'ishlagan fidoyi olim, mehribon ustoz *(Valijon Mahmudov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlanadi)* 302

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a146

UO'K: 636.02:330.341.1(575.1)

YANGI O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIKNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЖИВОТНОВОДСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF LIVESTOCK BREEDING IN NEW UZBEKISTAN BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Boboyev Baxromjon Kenjayevich[1]
[1]Farg'ona davlat universiteti, q.x.f.n., dotsent

Yusupova Niginabonu Ne'matjon qizi[2]
[2]Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada Respublikamida chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ilmiy amaliy ishlarni va xalqaro hamkorliklarni yangi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish, qishloq joylarining rivojlanishi hamda aholi farovonligini oshirishda, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq joylarda aholi bandligini ta'minlashda fermer va dehqon xo'jaliklarining o'rni muhim ro'l o'ynashi bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы, связанные с созданием необходимых условий для устойчивого развития животноводства в республике, развитием научно-практической работы и международного сотрудничества на основе новых инновационных технологий, важной ролью фермерских и дехканских хозяйств в развитии села и повышении благосостояния населения, а также обеспечении продовольственной безопасности и занятости в сельской местности.

Abstract

In the article, the role of farmers and peasants in creating the necessary conditions for the sustainable development of the livestock sector in the Republic, developing scientific research and international cooperation based on new innovative technologies, developing rural areas and improving the well-being of the population, as well as ensuring food security and employment of the population in rural areas. the issues related to playing an important role are highlighted.

Kalit so'zlar: *chorvachilik, innovatsiya, texnologiya, seleksiya, naslchilik, kadrlar tayyorlash, ilmiy saloxiyat, ozuqa baza, gidroponika, yashil ozuqa.*

Ключевые слова: *животноводство, инновации, технологии, селекция, племенное дело, подготовка кадров, научные компетенции, кормовая база, гидропоника, зелёные корма.*

Key words: *animal husbandry, Innovation, technology, selection, breeding, personnel training, scientific authority, natural base, hydroponics, green feed.*

KIRISH

Fransuz olimi Jan Jak Russoning quyidagi so'zlaridan boshlashni lozim topdik, ya'ni: Har qanday davlatning mustaqilligini saqlovchi bir omil bor - bu uning qishloq xo'jaligidir. Butun dunyo boyliklari qo'lingda bo'lsayu, eyishga narsangiz bo'lmasa – siz boshqaga qaramsiz! Savdo boylik yaratsa, qishloq xo'jaligi ozodlikni nafaqat ushlab qoladi, balki rivojlantiradi deyilgan.

Respublikamida chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ilmiy – amaliy ishlarni yangi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlanishi xamda axoli farovonligini oshirishda, shuningdek oziq – ovqat xavfsizligi va qishloq joylarda axoli bandligini ta'minlashda fermer va dehqon xo'jaliklarining o'rni muhim rol o'ynaydi.

Bunday tadbirlar nafaqat aholi manfaatlarini oshiradi, balki, qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim qadam bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevnng 2018 - yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Agrar sohada eng katta muammo – fermerlarning qishloq xo'jaligi sohasida etarli bilimga ega emasligidir. To'g'ri, ularda kuch – g'ayrat, tashabbus, erga mehr bor, ko'pchiligining ko'zi yonib turibdi. Lekin afsuski, birgina xohish bilan biz yuqori hosildorlikka va pirovard natijaga erisha olmaymiz. Bizga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini

mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan havodek zarur" deyilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda qishloq xo'jaligining o'ta muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan chorvachilik tarmoqlarida seleksiya naslchilik ishlarini dunyodagi ilg'or tajribalar hamda zamonaviy texnologiyalar va ilm – fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, butun chorvachilik tarmog'ini iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'sib kelayotgan mamlakatimiz aholisini chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirish ichki iste'mol bozorlarida go'sht, sut, tuxum, asal, baliq va boshqa maxsulotlarni ishlab chiqarish hajmlarini yanada ko'paytirish hamda ularning narxlari barqarorligini doimiy ta'minlash eng muhim ustivor vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikada qishloq xo'jaligi maxsulotlari yalpi ulushining 44 foizi chorvachilik tarmoqlari mahsulotlari hisobiga to'g'ri kelishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017 – yil iyun oyidagi Farg'ona viloyatiga tashriflarida Farg'ona davlat universitetida "Zootexniya" fakultetining ochilishi hamda "Asalarichilik" va "Anorchilik" yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavriatlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Hozirda Vengriya qishloq xo'jaligi v hayot fanlari universiteti Farg'ona davlat universiteti bilan xalqaro hamkorligi doirasida Agrar qo'shma fakulteti tashkil etildi. Fakultet qoshida tuproqshunoslik aholi tomorqalaridan samarali foydalanish va dorivor o'simliklar va mevachilik va sabzavotchilik kafedralari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Yana bir yangilik Farg'ona davlat universiteti qoshida ushbu sohalarni yanada rivojlantirish bo'yicha yangi qurilayotgan Farg'ona eko shahrida O'zbekiston Qaxramoni, universitetning faxriy professori, hurmatli va aziz bo'lgan raxmatli Lolaxon opa Murodova nomidagi qishloq xo'jaligi kasb-hunar fermerlar maktabining ochilishi kelajakda yoshlarni ushbu soxalarga qiziqtirish, kasb – xunarga o'rgatish, bilimli yoshlarni keyingi oliy o'quv yo'nalishlariga tayyorlashdan iborat.

Shuning uchun kelajakda ushbu soxalarni yanada rivojlantirish, ilmiy saloxiyatni yanada oshirish va chorvachilik sohasini oliy ma'lumotli, etuk zooinjeneriya mutaxassislari bilan ta'minlash maqsadida Farg'ona davlat universiteti Agrar qo'shma fakulteti qoshida qo'shimcha 60840100 – Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) va 60811500 – Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) bakalavriyat ta'lim yo'nalishlarini ochish va qo'shimcha kvotalar olish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Bu esa chorvachilik yo'nalishidagi naslchilik toifasidagi xo'jaliklarida oliy ma'lumotli zooinjeneriya mutaxassislarining nazariy olgan bilimlarini amaliyotga bog'lash, chorva hayvonlarning mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilash, ozuqa bazasini yaratish, ularni to'la qiymatli oziqlantirish, asrash sharoitlarini yaxshilash, pushtdorlik xususiyatlaridan unumli foydalanish, seleksiya – naslchilik ishlarini yo'lga qo'yishdan iborat bo'ladi.

Respublikada chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishda so'nggi etti yil mobaynida misli ko'rilmagan darajada islohotlar olib borilmoqda, buni tom manoda uchinchi renessans davri deb atasa bo'ladi.

2016-2023-yillar davomida Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan 2 ta farmon, 30 ga yaqin qaror, vazirlar Mahkamasining 50 dan ortiq qarorlari bilan O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mtasini rivojlantirish va chorvachilikda ilm-fanni rivojlantirish istiqbollari belgilab berilgan. Oxirgi yillarda Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi, chorvachilik fermer xo'jaliklariga katta e'tibor qaratilayotganligi, chorvachilikda ozuqa bazasini mustahkamlashda sug'oriladigan erlardan oqilona foydalanib, ozuqabop ekinlardan yuqori hosil olish hisobiga ozuqa ishlab chiqarishni ko'paytirish, xamda yangi innovatsion texnologiyalar asosida qo'shimcha jadal usulda gidroponika texnologiyasi asosida yashil ozuqasini etishtirish masalalarini echish chorvachilik sohasi xodimlari zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi.

XULOSA

Respublika va Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida yuqori mahsuldorlikka erishish ko'p jihatdan ozuqa zaxirasining mustahkamligiga bog'liq, bunda kuz, qish va bahor mavsumlarida ekin maydonlarida etarli ozuqabop ekinlar bo'lmagan davrda yangi innovatsion yuqori samarali jadal (intensiv) usulda avtomatlashtirilgan gidroponik texnologiyasi asosida yashil chorva ozuqasini etishtirish boshqa ozuqabop ekinlarni yangi turlarini ekish va chorva hayvonlarini mahsuldorligini oshirish, chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish hamda aholini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 29 yanvar PQ 4576-sonli qarori.
2. Ashirov M.E va boshqalar. Fermer va dexqon xo‘jaliklari xamda axoli xonadonlarida qoramolchilikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy qo‘llanma. Toshkent 2019-yil.
3. Xamdamov X.A va boshqalar. Chorvachilikka faol investitsiyaning asosiy mezonlari. (sut va go‘sht yo‘nalishidagi qramolchilik fermalarini samarali boshqarish bo‘yicha qo‘llanma) Toshkent 2020-yil